

Farg'ona viloyati bo'yicha davlat xizmatlari markazlari orqali 24 soat abituriyentlar hujjatlari qabul qilinmoqda

So'ngi yillarda aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yangidan yangi qulayliklar yaratilmoqda. Avvalari tashkilotlar qabulida sarson bo'lgan fuqarolar endilikda davlat xizmatlari markazlariga borgan holda judayam qisqa vaqt davomida o'zlarining ishlarini hal etmoqdalar.



Har yili 15 iyundan 15 iyulga qadar respublika miqyosida oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni hujjatlarini davlat xizmatlari markazlari orqali qabul qilish an'ana tusiga kirib bordi. Aholi bundan judayam xursand. Sababi ularning uzog'i yaqin bo'lib, moddiy tomondan mablag'lari tejalmoqda.



Ushbu yangiliklarning albatta halqimiz va fuqarolarimiz uchun. Davlat xizmatlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi va tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari abituriyentlarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida 24 soatli ish rejimiga o'tkazildi. 24 soatlik ish vaqti ro'yxat asosida tungi navbatchilik shaklida amalga oshirildi.



Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilishga doir ishlarni samarali tashkil etish maqsadida davlat xizmatlari markazlari tomonidan hujjatlarni dam olish kunlarisiz qabul qilish belgilanganligi, ushbu qoidani amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiqlashtirish maqsadida dam olish kunlari (shanba, yakshanba) abituriyentlardan hujjatlarni qabul qilishga jalb qilingan (o'z xohishlariga asosan) markaz xodimlariga nisbatan, boshqarma boshlig'ining 2019 yil 17 iyun kungi 67-um sonli buyrug'i bilan haftaning boshqa ish kuni davomida dam olish kuni (otgul) berilishi ta'minlangan.



Farg'ona viloyati bo'yicha davlat xizmatlari markazlari orqali

12,13,14 iyul kunlari tungi soat 20:00 dan tongi soat 08:00 ga qadar viloyat miqyosida jami 1 116 ta abituriyent hujjat topshirgan. Shundan Farg'ona shaharda 214 ta, Toshloq tumanida 190 ta, Oltiariq tumanida 170 ta abituriyentlar hujjatlari qabul qilindi.

2019-07-15 12:34:03